

**Raximjanova Tursunoy Rustamjon qizi**

*Toshkent davlat yuridik universtiteti Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti 2-kurs talabasi*

Jamiyat taraqqiyoti, fuqarolarning yashash sharoitlarni yaxshilashda islohotlar muhim o'rinni tutadi. Har birimiz, ozmi-ko'pmi, islohotlar ishtirokchisimiz. Sababi bizning faolligimiz, o'zgarishga tayyorligimiz va yangi sharoitlarga moslasha olishimiz o'zgarishlar jarayoniga o'z tasirini o'tkazadi. Islohot haqida gaplashishdan avval, ushbu so'z lug'aviy ma'nosi anglamog'imiz lozim. ijtimoiy hayotning biron-bir tomonini o'zgartirish, qaytadan tuzish demakdir. Islohot rasman — har qanday mazmundagi yangilikni joriy etish hisoblansada, aslida islohot deyilganda ko'p yoki oz darajadagi ilg'or qayta o'zgartirish nazarda tutiladi. Xususan, jamiyatda amalda bo'lgan ayrim yo'nalishni samaradorligini oshirish maqsadida islohotlar ishlab chiqiladi. Jamiyat taraqqiyoti uchun har bir inson islohotlarni amalga oshirishda o'z hissasiga ega bo'lmos'hish lozim. Ishonchim komilki, islohotlarda ishtirok etish nafaqat ijtimoiy hayotni yaxshilashga hissa qo'shish imkoniyatini beradi, balki shaxsni rivojlantiradi, fuqarolik hissini uyg'otadi va fuqarolik burchlarini bajarishga undaydi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirli va Toshkent davlat yuridik universtiteti bilan birgalikda "Tengdosh tengdoshga" shiori ostida Islohotlarda daxldorman nomli targ'ibot tadbirlari respublikamizning barcha hududlarida tashkil etilib kelinmoqda. Talaba va professorlardan tashkil topgan ishchi guruh yoshlarga oid davlat siyosati, ularga yaratilayotgan bugungi imkoniyatlar va boshqa shu kabi yurtimizda bo'layotgan islohotlar haqida ma'lumot berib, yoshlarni qiziqtirgan huquqiy muammolariga yechim berdilar. Amalga oshirilayotgan bu kabi tadbirlar fuqarolarni bugungi kunda bo'layotgan islohotlardan xabardor qilish, va ana shu islohotlar orqali ko'zlangan maqsadga erishish uchun tashlangan katta qadamlardan biri bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi. O'zini islohotlar ishtirokchidek sezgan har bir shaxs jamiyatda dunyoda bo'lib o'tayotgan voqealarga befarq qarab tura olmaydi. Unda jamiyatga tegishlilik hissi uyg'onadi.

Bugungi kunda mamlakatimizdagи islohotlarning asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining strategiya to'g'risida №158-sон Farmoni "O'zbekiston-2030" amalda hisoblanadi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatga muvofiq, "O'zbekiston-2030" strategiyasi 1-ilovaga muvofiq bajarilishi lozim bo'lgan harakatlar belgilab o'tilgan. Strategiyani amalga oshirish jarayonida olingan narsalar asosida ishlab chiqilgan Yangi O'zbekiston tajribasini rivojlantirish va jamoatchilik muhokamasi natijalari hujjatda o'z ifodasini topgan. "O'zbekiston 2030" strategiyasida asosiy fikrlar quyidagilardan iborat:

- barqarorlik orqali yuqori o'rta daromadli mamlakatlar qatoriga qo'shilish;

- iqtisodiy rivojlanish;
- ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini to'liq yaratish;
- odamlarning ehtiyojlari va xalqaro standartlarga javob berish;
- aholi uchun qulay ekologik sharoit yaratish;
- xalqqa xizmat qiluvchiadolatli va zamonaviy davlat qurish;
- mamlakat suvereniteti va xavfsizligini kafolatlangan ta'minlash.

Bu sohalarning barchasida 2030-yilgacha ma'lum rejalar berilgan o'z vaqtida yakunlanishi va 2030-yil uchun ba'zi islohotlar ko'rib chiqilishi mumkin. Masalan, ta'lim sohasida ko'rib chiqaylik, Yangi bosqichga ko'tarish yo'naliishiga maktabgacha ta'lim tizimlari va bolalarni to'liq qamrab olishni ta'minlash kabilar kiradi.

Maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to'liq qamrovini ta'milash maqsadida bolalarni maktabgacha ta'lim va tayyorlov guruhlari bilan qamrab olish, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini 100 foiz komputer sinfi bilan ta'minlash orqali tarbiyalanuvchilarda boshlang'ich komputer savodxonligi ko'nikmalarini oshirish, 100 foiz maktabgacha ta'lim tashkilotlarini toza ichimlik suv va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan ta'minlash kabi vazifalar ilgari surilgan.

Umumiy o'rtacha tizimni yangi darajaga ko'tarish ta'lim: **700 ga yaqin nomdagi** yangi darsliklar, mashq daftarlari, pedagoglar uchun metodik qo'llanmalar va mobil ilovalar yaratish, Yangi avlod darsliklari asosida planshetlar uchun **1 000 ta** multimedia dasturlarini yaratish, Ta'lim tashkilotlariga har yili **500 nafar "til egalari"** bo'lgan xorijiy mutaxassislarni jalg etish, Barcha **umumiy o'rta ta'lim muassasalarida kasb-hunararlarga o'rgatish kurslarini** joriy etish, Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablarning **ta'lim metodikasini barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quv jarayonlariga** joriy qilish kabi masalalar oldinda turibdi.

Bundan tashqari ushbu loyihada ta'lim tizimi islohotlari, aholi salomatligini ta'minlash, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va kambag'allikni qisqartirish, yoshlarga oid davlat siyosati va sport yo'naliishi, ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va madaniy sohani yangi bosqichga olib chiqish, barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash, atrof-muhit bilan aloqador islohotlar, davlat boshqaruviga va boshqa shu kabi masalalar yuzasidan 2030-yilga bajarilishi lozim bo'lgan ishlar belgilab qo'yilgan. Bu kabi normativ hujjatlar va targ'ibot tadbirlari fuqarolarni mamlakatga va jamiyatga nisbatan aloqadorlik hissini shakllantirib, jamiyat va davlat rivoji uchun ozmi-ko'pmi o'z ulushini qo'shishga undaydi. Bunday davlatda va bunday jamiyatda kundan-kunga rivojlanish va o'sish bo'laveradi.